

**QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR****Ebatov Murod Nabiyevich**

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 1 - bosqich 128 - guruh kursanti.

+99899-037-28-37

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19200288>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi tizimida muhim o'rin tutuvchi qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar institutining nazariy-huquqiy asoslari, turlari va ularning amaliyotda qo'llanilish xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, kam ahamiyatli qilmishlar va boshqa huquqiy holatlarning qonuniy mezonlari amaldagi Jinoyat kodeksi va Oliy sud Plenumi qarorlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu institutning inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavflilik, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, kam ahamiyatli qilmish, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik, jinoiy javobgarlik, ayb.

**ОБСТОЯТЕЛЬСТВА, ИСКЛЮЧАЮЩИЕ ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье исследуются теоретико-правовые основы, виды и особенности практического применения обстоятельств, исключающих преступность деяния, которые занимают важное место в системе уголовного права Республики Узбекистан. В ходе исследования были проанализированы правовые критерии необходимой обороны, крайней необходимости, малозначительности деяния и других правовых обстоятельств на основе действующего Уголовного кодекса и постановлений Пленума Верховного суда. Также освещена роль данного института в защите прав человека и обеспечении социальной справедливости.

**Ключевые слова:** состав преступления, общественная опасность, необходимая оборона, крайняя необходимость, малозначительное деяние, обоснованный риск, уголовная ответственность, вина.

**CIRCUMSTANCES EXCLUDING THE CRIMINALITY OF AN ACT**

**Abstract.** This article examines the theoretical and legal foundations, types, and practical application features of circumstances excluding the criminality of an act, which occupy an important place in the criminal law system of the Republic of Uzbekistan. During the research, the legal criteria of necessary defense, extreme necessity, acts of minor significance, and other legal circumstances were analyzed based on the current Criminal Code and the resolutions of the Plenum of the Supreme Court. Furthermore, the role of this institution in protecting human rights and ensuring social justice is highlighted.

**Keywords:** corpus delicti, social danger, necessary defense, extreme necessity, minor act, justified risk, criminal liability, guilt.

**Kirish.** Ijtimoiy munosabatlarni har qanday tajovuzdan himoya qilish nafaqat davlatning, balki, jamoat tashkilotlarining va barcha fuqarolarning burchi, vazifasi hisoblanadi. Demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida shaxsning huquqlari, jamiyat va davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. Jinoyat huquqi faqatgina jazolash mexanizmi emas, balki ijtimoiy adolatni qaror toptirish vositasidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (JK) 35-moddasida mustahkamlangan qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar instituti aynan shu adolatning ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi [2, 9-b.].

Mazkur institut qilmishda rasmiy jihatdan jinoyat alomatlari mavjuddek ko'rinib, uning ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xilofligi yoki aybi bo'lmagan taqdirda shaxsni asossiz jinoiy ta'qibdan himoya qiladi [6, 95-b.].

### **INSTITUTNING TARIXIY-HUQUQIY ILDIZLARI**

O'zbekiston hududida javobgarlikdan ozod qilish va qilmishning jinoiyligini istisno etish asoslari uzoq tarixga ega. Sobiq sovet davriga qadar bo'lgan huquqiy tizimlarda, xususan islom huquqi (fiqh) ta'limotida "**faktik xat6**" tushunchasi markaziy o'rin tutgan [1, 22-b.]. Islom huquqiga ko'ra, agar shaxs taqiqlangan harakatni qasd qilmasdan, adashish natijasida sodir etsa, u jinoiy javobgarlikka tortilmagan, chunki insonning adashish ehtimoli huquqiy jihatdan tan olingan [1, 22-b.]. Shuningdek, qadimiy manba "Avesto"da ham qonli qasos olish an'anasi o'rini davlat tomonidan beriladigan jazolar va jinoyatchining jabrlanuvchiga to'laydigan haqlariga bo'shatib berganligi kuzatiladi [1, 23-b.]. Islom jinoyat huquqida "**diya**" (xun) instituti orqali javobgarlikdan ozod qilish shariat normalarida keng

qo'llanilgan va bu insonparvarlikning yorqin namunasi bo'lgan [1, 23-b.]. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi qonunchilikda ham muddat o'tishi yoki yoshning kichikligi kabi holatlar javobgarlikni istisno etuvchi omil sifatida qaralgan [1, 31-b.].

### **QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLARNING UMUMIY TAVSIFI**

Amaldagi Jinoyat kodeksining 35-moddasiga binoan, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deganda, JKda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'lmagan harakatlar tushuniladi [2, 9-b.]. Tadqiqotchi B.Xolmatov ushbu normadagi "mavjud bo'lsa-da" iborasini "mavjuddek ko'rinib" deb o'zgartirishni taklif qiladi [6, 95-b.]. Bu orqali qilmishning aslida mohiyatan jinoiy emasligi aniqroq ifodalanadi. M.Usmonaliyev va Y.Ochilovlarning ta'kidlashicha, ushbu holatlarning barchasi uchun uchta belgi umumiy hisoblanadi: qilmishning ijtimoiy xavfli emasligi, huquqqa xilof emasligi va unda aybning yo'qligi [10, 342-b.]. Mazkur holatlardan birining mavjudligi shaxsni javobgarlikka tortishni istisno qiladi [7, 18-b.].

### **HOLATLARNING TURDAGI TAHLILI VA AMALIY MUAMMOLAR**

**Kam ahamiyatli qilmishlar (JK 36-modda).** Qilmish o'zining kam ahamiyatligi tufayli jamiyat uchun xavf tug'dirmaydi [5, 126-b.]. M.Usmonaliyevning fikricha, bunday holatda jinoyat tarkibining aybliligi va huquqqa xilofligi belgilari saqlanib qolsa-da, ijtimoiy xavflilik darajasi yetarli bo'lmaydi [5, 126-b.]. M.Rustamboyev esa ushbu holatning ikki belgisini: formal (JKdagi alomatlar) va moddiy (ijtimoiy xavfning yo'qligi) belgilarini ajratib ko'rsatadi [5, 128-b.]. Talaba sifatida shuni ta'kidlash lozimki, amaliyotda qilmishni kam ahamiyatli deb topishda hali ham yagona o'lchov (masalan, zarar miqdori bo'yicha) mavjud emas, bu esa sud-tergov organlaridan har bir holatga individual yondashishni talab etadi [5, 127-b.].

**Zaruriy mudofaa (JK 37-modd)** Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi. Tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi [2, 19-b.]. Oliy sud Plenumining 39-sonli qaroriga muvofiq, mudofaa huquqi shaxsning qochib qutulish yoki boshqalardan yordam so'rash imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar unga tegishlidir [3, 48-b.].

Sudlar mudofaa choralarini baholashda tajovuzning xarakteri, himoyaning kuchi va barcha holatlarni (joy, vaqt, qurol) hisobga olishlari shart [3, 43-b.]. Agar mudofaalanuvchi yanglishib, haqiqatda mavjud bo'lmagan tajovuzni qaytarsa (faraz qilingan mudofaa yoxud xayoliy mudofaa), uning harakati zaruriy mudofaa qoidalariga binoan baholanadi [3, 46b.].

**Oxirgi zarurat (JK 38-modda)** Oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi [2, 19-b.]. G'. Toshqulovning tahlilicha, ushbu institut nafaqat jinoyat, balki ma'muriy huquqda ham (MJtK 19-modda) muhim o'rin tutadi [4, 61-b.]. Ma'muriy ish yurituvining tezkorligi ba'zan oxirgi zarurat kabi murakkab holatlarni yuzaki baholash xavfini tug'diradi, shuning uchun sudlar xavfning realligini isbotlovchi dalillarni sinchiklab o'rganishlari lozim [4, 63-b.].

**Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik (JK 41-**

**moddasi)** Ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazish jinoyat deb topilmasligining shartlari ixchamlashgan shaklda ko'rsatilib o'tilgan. Mazkur shartlar, birinchidan, qilmishdagi tavakkalchilikni ijtimoiy foydasi tarafidan, ikkinchidan, uni amalga oshirishdagi xatti-harakatlarni ma'lum darajadagi xavfsizligiga rioya qilinganligi tarafidan tavsiflanadi. Aynan shunda, qilmish mazkur barcha talablarga rioya etilganda, u kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik sifatida tan olinib, mos ravishda, jinoyatni istisno qilishi mumkin.-Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish

**XULOSA** Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar institutining qonunchilikda mustahkamlanishi jinoyat huquqining insonparvarlik, adolat va qonuniylik tamoyillarini ta'minlashda muhim kafolatdir [9, 904-b.]. Ushbu institut nafaqat shaxsni asossiz jazolashdan saqlaydi, balki fuqarolarning huquqiy faolligini oshirib, ularga o'z huquqlarini va jamoat manfaatlarini himoya qilishda huquqiy ishonch beradi [7, 17-b.]. Kelgusida ushbu holatlarni baholash mezonlarini yanada aniqlashtirish bo'yicha Oliy sud Plenumining umumlashtirilgan tushuntirishlarini kengaytirish, ayniqsa "kam ahamiyatli qilmish" chegaralarini aniq belgilash sud amaliyotidagi xatoliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi [5, 128-b.].

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Akramova M. T. Sobiq sovet davlati tashkil topguniga qadar
2. O'zbekiston Respublikasi hududida javobgarlikdan ozod qilish asoslarining rivojlanishi // Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар. – Т., 2022. – 21-32-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Т.: "Adolat", 2024. – 194 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda 39-sonli qarori. Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqi haqida.
5. Toshkulov G'. E. Oxirgi zarurat natijasida ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. 2026. 50-76-betlar.
6. Komilov Sh. Sh. Jinoyat huquqida kam ahamiyat qilmishlarning jinoyat huquqiy chegarasi // Proceedings of International Scientific Conference. 2024. 125-128-betlar.
7. Xolmatov B. O'. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning o'ziga xos jihatlari // LAW, POLICY AND SOCIETY. 2024. 5-son.

8. Subanov O. S. Jinoyat huquqida qilmishning jinoyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi, turlari va ularning ahamiyati // O'rta Osiyoda ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar. 2025. 15-20-betlar.
9. G'iyosov Z. A. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari. – T.: “TafakkurBo‘stoni”, 2012. – 168 b.
10. Rustamova E. A. Qilmishning jinoyligini istisno qiladigan holatlar: nazariy va amaliy jihatlari // Zenodo. 2025.
11. Usmonaliyev M., Ochilov Y. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. – 342-bet.